

O‘zbekistonning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusidagi roli: Strategik hamkorlik va rivojlanish istiqbollari

Amirullo Tukhliboev
amirullotuhlibaev@gmail.com

Academy of Banking and Finance of Republic of Uzbekistan

Annotatsiya: “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi (Belt and Road Initiative, BRI) 2013-yilda Xitoy tomonidan e‘lon qilingan global infratuzilma va iqtisodiy rivojlanish strategiyasidirva o‘tgan 5-yil davomida zamonaviy global rivojlanish kun tartibining ajralmas qismiga aylandi. U bugungi kunda Osiyo, Yevropa va Afrikaning 4,4 mlrd aholisi bo‘lgan 60 dan ortiq mamlakatini birlashtiradi. BMBYning asosiy mavzulari BMT, G20, OTIH va boshqa xalqaro tashkilotlar hujjatlariga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi "Bir makon, bir yo‘l" tashabbusini avval-boshdanoq qo‘llab-quvvatladi. Mamlakatning mazkur loyihaga jalb etilishi barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, butun Markaziy Osiyoga ijobiy ta‘sir ko‘rsata oladigan muhim transport va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishning ustuvor maqsadlariga erishish nuqtayi nazaridan muhim sanaladi.

Kalit so‘zlar: yo‘l, moliyalashtirish, sarmoya

The role of Uzbekistan in the “One place, one road” initiative: Strategic cooperation and development prospects

Amirullo Tukhliboev
amirullotuhlibaev@gmail.com

Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The Belt and Road Initiative (BRI) is a global infrastructure and economic development strategy announced by China in 2013 and has become an integral part of the modern global development agenda over the past 5 years. Today, it unites more than 60 countries of Asia, Europe and Africa with a population of 4.4 billion. The main topics of BMBY are included in the documents of UN, G20, OTIH and other international organizations. The Republic of Uzbekistan supported the “One place, one way” initiative from the very beginning. Involvement of the country in this project is considered important from the point of view of achieving the priority goals of ensuring sustainable economic development, implementing important transport and infrastructure projects that can have a positive impact on the whole of Central Asia.

Keywords: road, financing, investments

Kirish: So‘nggi besh yil ichida Xitoyning “Bir Makon, Bir Yo‘l” tashabbusi zamonaviy global rivojlanish kun tartibining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu tashabbus Osiyo, Yevropa va Afrikadagi 4,4 milliard aholiga ega 60 dan ortiq mamlakatni birlashtirib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), G20 va boshqa ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi muhim ishtirokchi sifatida mazkur tashabbusni dastlabki bosqichidanoq qo‘llab-quvvatladi va uning mamlakat va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish uchun imkoniyatlarini yuqori baholadi. Tashabbus orqali amalga oshirilayotgan infratuzilma va transport loyihalari barqaror iqtisodiy o‘shish va integratsiyani ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda.

O‘zbekistonning “Bir Makon, Bir Yo‘l” tashabbusida ishtirok etishi, mamlakatning Xitoy bilan har tomonlama strategik hamkorligini chuqurlashtirish maqsadlariga mos keladi. 2018-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 35 foizga oshib, 6,42 milliard AQSh dollariga yetdi. Mamlakatda Xitoy investitsiyalari ishtirokida 1 100 dan ortiq korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Xitoyning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan jami sarmoyalari esa 8 milliard dollardan oshdi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Bir Makon, Bir Yo‘l" forumida faol ishtirok etishi va Xitoy rahbariyati bilan olib borilgan muzokaralar mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston mintaqaviy transport salohiyatini oshirish orqali “Xitoy - Markaziy Osiyo - G‘arbiy Osiyo” iqtisodiy yo‘lagini shakllantirishga katta ahamiyat qaratmoqda. “O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy” temir yo‘li kabi loyihalar savdo hajmini oshirish, ish o‘rinlari yaratish, turizmni rivojlantirish va tranzit daromadlarini ko‘paytirish imkonini beradi. Masalan, “Qashqar-Irkeshdom-O‘sh-Andijon-Toshkent” avtomobil yo‘li Markaziy Osiyo tashuvchilariga Xitoyga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkonini bergan ilk loyiha sifatida o‘zini muvaffaqiyatli namoyon qildi.

Shu bilan birga, “Mozori-Sharif-Qobul-Peshavor” temir yo‘li Janubiy portlarga chiqish imkoniyatini beruvchi yana bir muhim loyiha hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishning muhim tafsilotlari O‘zbekiston, Afg‘oniston, Qozog‘iston, Pokiston va Rossiya o‘rtasidagi ko‘p tomonlama muzokaralar davomida muhokama qilinmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash hozirgi dunyoning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyoda tuproq degradatsiyasi, suv resurslari tanqisligi va eski qishloq xo‘jaligi usullarining saqlanib qolishi bu masalani yanada og‘irlashtiradi. O‘zbekiston “aqli” qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni va zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etishni rejalashtirmoqda. Xitoy bilan qishloq xo‘jaligi innovatsiyalari bo‘yicha qo‘shma markazlar yaratish ushbu sohada katta imkoniyatlar yaratadi.

Ilm-fan va texnologiyaning zamonaviy yutuqlarini joriy etish barqaror iqtisodiy o‘shish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston

Prezidenti ilmiy va innovatsion faoliyat yo'nalishlarida hamkorlik qilish tizimini yaratishni taklif etdi. Bu esa ko'p moliyaviy va boshqa resurslarni talab qiladigan katta tadqiqotlar uchun muhim hamkorlik imkoniyatlarini yaratadi. "Bir Makon, Bir Yo'l" doirasidagi texnoparklar va ilmiy-investitsion klasterlar ilmiy-texnik jarayonlarni tezlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Turizm sohasida O'zbekiston katta salohiyatga ega. O'zbekistonda 7 400 dan ortiq madaniy meros obyektlari bo'lib, ulardan 209 tasi UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Bir Makon, Bir Yo'l" forumida Samarqandda Xalqaro Ipak yo'li turizm assotsiatsiyasini tashkil etish va har yili "Bir Makon, Bir Yo'l" turizm forumlarini o'tkazishni taklif qildi. Bu tashabbuslar O'zbekiston turizm sektorini rivojlantirishda va yangi imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

O'zbekistonning "Bir Makon, Bir Yo'l" davlatlari bilan hamkorligi ulkan va hali to'liq amalga oshirilmagan salohiyatga ega. Transport, innovatsiya va ta'lim sohalaridagi tashabbuslar O'zbekiston-Xitoy munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishi va mintaqadagi dolzarb masalalarni hal qilish uchun muhim hamkorlikka zamin yaratishi mumkin. Shu tariqa, "Bir Makon, Bir Yo'l" tashabbusi doirasidagi hamkorlik barqaror iqtisodiy rivojlanish va xalqaro integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Taraqiyot strategiyasi markazi: "BIR MAKON, BIR YO'L": O'ZBEKISTON PREZIDENTI QANDAY TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI?, <https://strategy.uz/index.php?news=693>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro hamkorlik forumidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6777>
3. Jabborov Fazliddin Maxsidinovich "BIR MAKON - BIR YO'L" LOYIHASI - ZAMONAVIY "BUYUK IPAK YO'LI" SARI. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/13378>